

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2022

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.Shernazarov, X.Jamolova</b>	
“BOBURNOMA”ning forscha misralari .....	91
<b>S.Halimov</b>	
E.A.Poning hikoyalarida ijtimoiy davr va falsafiy mushohadakorlik dialektikasi .....	95
	TILSHUNOSLIK
<b>Z.Akbarova, M.Buvajonova</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun elektron o'quv lug'atlarini yaratishning zarurati xususida.....	100
<b>G.Davlyatova</b>	
Ritorikani (notiqlik) nutq san'ati sifatida o'rganish.....	103
<b>B.To'rayeva</b>	
Xronotop poetikasining o'ziga xos xususiyatlari .....	107
<b>Z.Alimova, S.Gafurova</b>	
“SADOI TURKISTON” gazetasi va undagi bir maqola xususida .....	114
<b>G.Raximova</b>	
Ingliz reduplikativ elementlarning funksional semantikasiga oid lingvistik qarashlar .....	120
<b>J.Ibragimov</b>	
Jahon tilshunosligida <i>collocation</i> atamasi va uning tadqiqi .....	123
<b>N.Xasanboyeva</b>	
Zamonaviy fransuz tilida so'roq gaplar semantikasi va funksional xususiyatlari .....	127
<b>D.Ganiyeva, D.Ismoilova</b>	
Struktur tilshunoslikning nazariy asoslari .....	130
<b>M.Qurbonova</b>	
O'zbek tilshunosligida okkazonal birliklar tadqiqi .....	134
<b>L.Masharipova</b>	
Til va madaniyat .....	139
<b>Sh.Jumaqulova</b>	
O'zbek tilida “xursandchilik” etimonlari qo'llanilgan frazeologik birliklar ifodalanishi .....	144
<b>X.Maripova</b>	
Nemis tilidagi harbiy frazeologik birliklarining sotsiopragmatik xususiyatlari .....	147
<b>A.Mattiyev</b>	
Ravish tasnifiga doir yondashuvlar .....	151
<b>A.Yuldashev</b>	
So'z ma'nosi xususida.....	154
<b>D.Gaziyeva</b>	
Funksional va stilistik jihatdan media tili .....	159
<b>U.Yokubbayeva</b>	
“Yangi O'zbekiston strategiyasi” kitobida qo'llangan “ <i>yashil</i> ” leksemasi ning semantik takomili.....	164
<b>N.Umarova, M.Abdulimova</b>	
Alisher Navoiy she'riyatida o'xshatish qurilmalari .....	170
	MATEMATIKA
<b>A.Xasanov, I.Jalilov</b>	
$F_{0;3;3}^{2;2;2} [x, y]$ gipergeometrik funksiya uchun integral ko'rinishlar va bu funksiyaning qanoatlantiruvchi gipergeometrik tipdagi differensial tenglamalar sistemasi .....	173
<b>D.Usmonov, A.Urinov</b>	
Soha chegarasining barcha qismida buziladigan to'rtinchi tartibli tenglama uchun chegaraviy masalalar .....	185
	FIZIKA – TEXNIKA
<b>M.Maxmudova, Sh.Shuxratov</b>	
Frezer stanoklarida metallarga ishlov berish texnologiyalari va uning innovatsion usulda o'qitilishi.....	193

## O‘ZBEK TILIDA “XURSANDCHILIK” ETIMONLARI QO‘LLANILGAN FRAZEOLOGIK BIRLIKLER IFODALANISHI

## ВЫРАЖЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЭТИМОНОВ "РАДОСТЬ" В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

## THE EXPRESSION OF PHRASEOLOGICAL UNITS USING THE ETYMONS OF JOY IN UZBEK

Jumaqulova Shaxnoza Quдрat qizi<sup>1</sup><sup>1</sup>Jumaqulova Shaxnoza Quдрat qizi

– Termiz davlat universiteti, stajyor-tadqiqotchi.

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada o‘zbek tilida “xursandchilik” etimonlari va ular qo‘llanilgan frazeologik birliklarni o‘rganish, shuningdek, ularning ma‘nosi va turlarini izohlash, “xursandchilik” etimonlarini aniqlash maqsad qilib olingan. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, tasnifiy va tarixiy-qiyosiy kabi metodlardan hamda sinxron va diaxron aspektlardan foydalanilgan. Mazkur tadqiqot natijalari sifatida “xursandchilik” etimonlarini ifodalash bilan bog‘liq shakl va ma‘no etimonlari, frazeologik birliklar turlari va izohlari o‘rganilishi kelgusi o‘zbek tiliga oid tadqiqotlarda, tilshunoslikning etimologiya va frazeologiya sohalarida qo‘shimcha manba sifatida hamda lug‘atlar tuzishda foydalanilishi mumkin. Mazkur maqolada frazeologiya va so‘zlarning paydo bo‘lish tarixini o‘rganuvchi etimologiya haqida mulohaza yuritilgan. So‘zlarning etimologiyasi o‘rganilishida “xursandchilik” etimonlari tanlab olingan va ular qo‘llanilgan frazeologik birliklar tadqiq etilgan va izohlangan. Ushbu tadqiqotning xulosasi sifatida so‘zlarning etimologiyasini o‘rganish nafaqat so‘zlarning hozirda foydalanishdagi ahamiyatiga ta‘sir mavjudligi, balki frazeologiyalar mazmunida ham aks etishi mumkinligini ko‘rsatadi.

**Аннотация**

В данной статье ставится задача изучить этимоны «радость» в узбекском языке и фразеологические единицы, в которых они употребляются, а также объяснить их значение и виды, определить этимоны «радость». В процессе исследования использовались описательный, классификационный и историко-сравнительный методы, а также синхронический и диахронический аспекты. По результатам данного исследования изучение этимологии формы и значения, видов и определений фразеологизмов, связанных с выражением этимони «радость», будет использовано в качестве дополнительного источника в будущих исследованиях узбекского языка, в областях этимологии и фразеологии языкознания, а также словари могут быть использованы для создания. В данной статье рассматривается фразеология и этимология, изучающая историю возникновения слов. При изучении этимологии слов были выделены этимоны «радость», исследованы и объяснены фразеологизмы, в которых они употреблялись. В качестве вывода данного исследования изучение этимологии слов показывает не только наличие влияния на значение слов в современном употреблении, но и то, что оно может отражаться в содержании фразеологизмов.

**Abstract**

This article aims to study the etymon "joy" in the Uzbek language and the phraseological units in which they are used, as well as to explain their meaning and types, to determine the etymon "joy". In the course of the study, descriptive, classification and historical-comparative methods, as well as synchronic and diachronic aspects, were used. According to the results of this study, the study of the etymology of form and meaning, types and definitions of phraseological units associated with the expression etymon "joy" will be used as an additional source in future studies of the Uzbek language, in the fields of etymology and phraseology of linguistics, and can be used to create names. This article discusses phraseology and etymology, which studies the history of the emergence of words. In the study of the etymology of words, the etymons of "joy" was selected, and the phraseological units in which they were used were researched and explained. As a conclusion of this study, the study of the etymology of words shows not only that there is an influence on the importance of words in current use, but also that it can be reflected in the content of phraseologies.

**Kalit so‘zlar:** etimologiya, etimon, ma‘no etimoni, shakl etimoni, frazeologiya, frazeologik butunlik, frazeologik qo‘shilma, frazeologik chatishma.

**Ключевые слова:** этимология, этимон, этимон значения, форма этимон, фразеология, фразеологическое единство, фразеологическое сочетание, фразеологическое сращение.

**Key words:** etymology, etymon, etymon of meaning, form etymon, phraseology, phraseological unit, phraseological combination, phraseological fusion.

**KIRISH**

O‘zbek tilida frazeologik birliklardan foydalanish insonlar orasida qo‘llaniladigan nutqning uslubiy bo‘yoqdorligini oshirib, muloqotni yanada mazmundor bo‘lishiga imkon yaratadi. Ushbu frazeologik birliklar tarkibidagi so‘zlar ibora mazmunida ahamiyatli sanaladi. Mazkur so‘zlarning

## TILSHUNOSLIK

etimologiyasini o'rganish orqali frazeologik birliklarning mazmunidagi mohiyatini aniqlash bugungi kunda tilshunoslik sohasida dolzarb masalalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada "xursandchilik" tushunchasini anglatuvchi leksemalarning etimologiyasi o'rganiladi. Shu bilan birga, "xursandchilik" etimonlari qo'llanilgan frazeologik birliklar aniqlanadi. Mazkur frazeologik birliklarning turlari ifodalaniib, mazmuni izohlanadi va "xursandchilik" etimonlarining ahamiyati tadqiq etiladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Frazeologik birliklar haqida Sh.Rahmatullayev adabiyotlarda ushbu til birligini frazeologizm, frazeologik birlik kabi terminlar bilan atalishini leksema, morfema terminlariga monand ravishda frazema deb atalishini ma'qullaydi [4, 420]. H.Jamolxonovning so'zlariga ko'ra, frazeologiya tilshunoslikning bir bo'limi bo'lib, u tilning lug'at tarkibidagi frazemalar haqida ma'lumot beradi [3, 216]. A.A.Abduazizov frazeologik birliklarni uch turga ya'ni frazeologik qo'shilmalar, frazeologik butunliklar, frazeologik chatishmalarga bo'linishini ta'kidlaydi. Frazeologik qo'shilmalar tarkibidagi bir so'z to'g'ri, ikkinchi so'z esa ko'chma ma'noda bo'lib birikkan iboralar; frazeologik butunliklar tarkibidagi so'zlarning ma'nolari va grammatik jihati birikib umumiy ko'chma ma'no beruvchi iboralar; frazeologik chatishmalar tarkibidagi so'zlarning ma'nolari bilan ibora ifoda etgan ma'no o'rtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar hisoblanadi [1, 79]. Tilshunoslikning etimologiya bo'limi va uning o'rganuvchi birligi etimon bo'yicha ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilmoqda. M.T.Irisqulov etimologiyani so'zlarning kelib chiqish tarixini o'rganuvchi fan hisoblab, bu so'z grekcha "etymologia", ya'ni "etymon" – "haqiqat" va "logos" – "so'z" birikmalaridan tashkil topganligini ta'kidlaydi [2, 101]. Shu bilan birga, etimologiya o'rganuvchi birlik hisoblangan etimon xususida M.T.Irisqulov "etimologiya so'zning har ikki tomonini, ya'ni shakli va ma'nosini hisobga oladi" [2, 96] degan fikrlari shundan dalolat beradiki, etimonning shakl etimoni hamda ma'no etimoni so'zlarning kelib chiqish tarixini o'rganishda muhim hisoblanadi.

## NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbek tilida xursandlik ma'nosini anglatuvchi leksemalardan biri *omad* bo'lib, uning kelib chiqish tarixi va o'zbek tiliga o'zlashishi tojik tili bilan bog'liqdir. Bu leksema haqida Sh.Rahmatullayevning etimologik tadqiqotiga ko'ra, "*omad* – bu ot "*kel-*" ma'nosini anglatadigan tojikcha *omadan* fe'lining *omad* o'tgan zamon asosiga teng bo'lib, "*ishning o'ngidan kelishi, olg'a bosishi*" ma'nosini anglatadi" [5, 171]. *Omada* leksemasining shakl etimoni tojik tiliga oid *omadan* so'zi hisoblanib, "*ishning o'ngidan kelishi, olg'a bosishi*" ma'no etimoni sanaladi.

Xursandchilik tushunchasini ifodalovchi leksemalardan biri *baxt* hisoblanib, uning etimologiyasi haqida Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati"da quyidagi fikrlar keltirilgan: "*baxt* bu tojikcha ot "mamnunlik holati" ma'nosini anglatadi. Bu otdan o'zbek tilida baxtli, baxtsiz sifatlari, baxtsizlik oti yasalgan, baxt-iqbol, baxt-saodat juft otlari, baxti ochilsin, baxti qora, baxtga qarshi iboralar tuzilgan" [5, 24].

*Xushvaqt* leksemasi *vaqti chog'*, *xursand*, *shod* [8, 431] ma'nolarini anglatadi. Bu sifat "yaxshi" ma'nosini anglatadigan *xush* sifati bilan "payt" ma'nosini anglatadigan arabcha *vaqt* otidan tuzilgan bo'lib, "shu paytdagi kayfiyati yaxshi" ma'nosini anglatadi [5, 246].

Ushbu "xursandchilik" etimonlari ishtirok etgan quyidagi frazeologik birliklar aniqlandi: *omadi kulmoq*, *omadi yurishmoq*, *omadi kulib boqmoq*, *baxti kulmoq*, *baxti chopmoq*, *xushvaqt bo'ling*.

*Omada(i) kelmoq*, *omada(i) yurishmoq* iboralar *ishi o'ngidan kelmoq*, *baxti kelmoq*, *yurishmoq* ma'nolarini anglatadi [7, 121]. Ushbu ma'nolarni ifodalovchi frazeologik birliklar safiga *omadi kulib boqmoq* iborasi ham kiradi, ularda qo'llanilgan so'zlarning umumlashgan ma'nosi ularning majoziy ma'nosi bilan bog'liq hisoblanib, frazeologik butunlik sanaladi. Ushbu frazeologik birliklarda "omad" xursandchilik etimoni qo'llanilib, uning ma'no etimoni "omadan" holatidan "omad" shakliga o'zgargan va "ishning o'ngidan kelishi, olg'a bosishi" ma'no etimoni frazeologik birlik mazmunida ifodalangan.

*Baxti kulmoq* iborasi *baxtiyor hayotga*, *xushnud onlarga erishmoq*; *baxtli*, *baxtiyor bo'lmoq* ma'nolarini anglatadi [6, 178]. Ushbu frazeologik birlikning ikkinchi qismi *kulmoq* o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'noda *erishmoq* ma'nosini ifodalaydi. Birinchi qism *baxt* o'z ma'nosini saqlab qolgan, shu sababli uni frazeologik qo'shilma turiga kiritish mumkin. Mazkur frazeologik birlik tarkibida "baxt" xursandchilik etimoni ishtirok etib, uning shakl etimoni "baxt" o'zgarmagan holatda qo'llanilgan va ma'no etimoni "mamnunlik holati" frazeologik birlik majoziy ma'nosida saqlangan.

*Baxti chopmoq* frazeologik birligi *omadi yurishmoq*, *baxtga erishmoq* ma'nolarini anglatadi [6, 178-179]. Bu frazeologik birlikning birinchi qismi o'z ma'nosini saqlagan, ikkinchi qismini ifodalagan *chopmoq* so'zlari ko'chma ma'noda qo'llanilgan, shu sababli frazeologik qo'shilma sanaladi. Ushbu frazeologik birlikda ham "baxt" xursandchilik etimoni qo'llanilgan. Uning shakl etimoni "baxt" hamda "mamnunlik holati" ma'no etimoni frazeologik birlikda ifodalangan.

*Xushvaqt bo'ling!* iborasi mehmon kelganda aytiladigan "Xush kelibsiz!" iborasiga javoban aytiladi [8, 431]. Ushbu iborada *xushvaqt* hamda *bo'lmoq* so'zlarining ma'nolar umulashmasi majoziy ma'noda ifodalanadi, shu tufayli u frazeologik butunlik turiga kiritiladi. Bu frazeologik birlikda "xushvaqt" xursandchilik etimoni qo'llanilib, uning shakl etimoni "xushvaqt" va ma'no etimoni "shu paytdagi kayfiyati yaxshi" frazeologik birlik mazmunida hamda ifodasida saqlanib qolgan.

### XULOSA

Yuqoridagi tahlil natijalarini umumlashtirgan holda shuni xulosa qilib aytish mumkinki, "xursandchilik" etimonlar qo'llanilgan frazeologik birliklar asosan frazeologik butunlik va frazeologik qo'shilma turiga kiruvchi iboralar hisoblanadi. Ularning turini aniqlash iboralarning mazmunini o'rganishda muhim o'rin tutib, "xursandchilik" etimolarning ahamiyatini ochib berishda imkon berdi. Shuningdek, "xursandchilik" tushunchasini anglatuvchi leksemalar etimologiyasi aniqlanishi davomida ularning kelib chiqish tili, ma'nosi va shakli o'rganildi hamda ularning frazeologik birliklarda ifodalanishida asosiy ma'no beruvchi leksema sifatida yoritib berildi. Mazkur tadqiqot kelajakda tilshunoslikning frazeologiya va etimologiya sohasiga doir masalalarni o'rganishda muhim hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A.A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – T.: Sharq, 2010. – bet 79. (Abduazizov A.A. An Introduction to Linguistic Theory. – T.: Sharq, 2010. – page 79.)
2. Irisqulov M.T. Tilshunoslikka kirish. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – bet 96-101. (Irisqulov M.T. Introduction to Linguistics. – T.: Yangi asr avlodi, 2009. – pp. 96-101.)
3. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili: darslik. – T.: Talqin, 2005. – bet 216. (Jamolkhanov KH. Modern Uzbek literary language: textbook. – T.: Talqin, 2005. – page 216.)
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiyoti: darslik. – T.: Universitet, 2016. – bet 420. (Rahmatullayev Sh. Current Uzbek literature: textbook. – T.: University, 2016. – page 420.)
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (III tom). – T.: Universitet, 2009. – bet 24-246. (Rahmatullayev Sh. Etymological dictionary of the Uzbek language (Volume III). – T.: University, 2009. – p. 24-246.)
6. O'zbek tilining izohli lug'ati (1-jild). – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – bet 178-179. (An explanatory dictionary of the Uzbek language (Volume 1). – T.: National Encyclopedia of Uzbekistan State Scientific Publishing House, 2006. – page 178-179.)
7. O'zbek tilining izohli lug'ati (3-jild). – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. – bet 121. (An explanatory dictionary of the Uzbek language (Volume 3). – T.: National Encyclopedia of Uzbekistan State Scientific Publishing House, 2006. – page 121.)
8. O'zbek tilining izohli lug'ati (4-jild). – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – bet 431. (An explanatory dictionary of the Uzbek language (Volume 4). – T.: National Encyclopedia of Uzbekistan State Scientific Publishing House, 2008. – page 431.)